

## Ziyorat zamiridagi haqiqat

Ziyorat zamirida qadriyat, anglash, his etish va faxru iftixor bor. Ko'ngil mulkiga sayohat ziyoratlarning avlosi, ulug'larni yod etish katta ahamiyatga molik. Joriy yilning 29 noyabr kunida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining 1 - bosqich 2 - guruh talabalari guruh murabbiyi H. Eshova boshchiligidagi, O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov memorial majmuasiga sayohat uyushtirildi.

Sayohat mobaynida talabalarimiz suratlardagi lavhalarni tomosha qilar ekanlar, suratlarni xuddi jonlidek tasvirlanganidan ta'sirlandilar va shu bilan birga monumentlarning har bir qismi e'tibor bilan yasalganligidan xuddi ular bilan yonma-yon turgandek cheksiz xursand bo'ldilar.

Talabalar muzeyni aylanar ekanlar, Prezidentimizning tadbirlardagi ishtiroklari, minbarda o'tkazgan ma'ruzalardan lavhalar va bir qancha keng taassurotlarga ega rasmlar bilan muzey xodimlari tomonidan qisqacha suhbat orqali tanishtirdilar. Talabalar muzeydan katta taassurotlar bilan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olgan holda qaytdilar.



**YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan movini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**